



Received: April 3, 2023
Accepted: June 23, 2023
Available online: June 25, 2023

Dilnavoz Murodova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

AMERIKALIK HINDULAR OBRAZI JAHON ADABIYOTSHUNOSLARI NIGOHIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada Amerika tub aholisi bo'lgan hindularning adabiyotga badiiy obraz sifatida kirib kelishi, yaxshi va yomon qiyofalarda namoyon bo'lishi va ularga nisbatan uzoq yillar davom etgan salbiy munosabatlarning ijobiy tomonga o'zgarish jarayoni jahon adabiyotshunoslari tadqiqotlariga asoslanib tahlil qilinadi. Amerika adabiyotiga nazar tashlar ekanimiz unda hindularning hayotiga oid qissa, roman, hikoya va boshqa adabiy janrlarning ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ular mashhur ijodkorlarning shoh asarlarida har xil qiyofalarda namoyon bo'lishdi.

1492-yilda Xristofor Kolumb tomonidan ilk bora uchratilgan Amerika hindulari har doim ham oliy sanalgan insoniy sifatlar bilan tavsiflanmagan. Uzoq yillar mobaynida bu xalqlarga nisbatan qonxo'r, vaxshiy kishilar sifatida qaralgan. 19-asrning birinchi choragiga kelib esa bunday salbiy qarashlar o'zgara boshladi. Amerika adabiyoti namoyondalari o'zlarining asarlariga hindularni ijobiy obraz sifatida olib kira boshladilar. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab esa hindularga bo'lgan munosabat yaxshi tomonga o'zgardi. Unga qadar Amerika adabiyotida mavzu tanlashda Yevropa adiblari an'analariga tayanib kelingan. Hindularga bo'lgan yangicha qarash shu davrning adabiyoti va san'atida o'z aksini topdi. Amerikalik adiblar va rassomlar uchun hindular, ularning madaniyati, ular yashaydigan o'rmonlar yangi mavzu bo'la boshladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi badiiy adabiyotda paydo bo'lgan Amerika hindularini obraz sifatida o'rganishdir. Tahlillar natijasida shu xulosaga kelindiki, salbiy obraz sifatida gavdalangan hindular 1815-yildan keyin

Dilnavoz Murodova

PhD Student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dil7navoz@gmail.com

THE IMAGE OF AMERICAN INDIANS IN THE EYES OF WORLD LITERARY SCHOLARS

ANNOTATION

The article, deals with the introduction of American Indians, the indigenous people of America, into literature as artistic images, their presentation as good and bad people, and the process of changing the long-standing negative attitude towards them to a positive one. The author's analysis is based on the world literary scholars' research works. Looking at the literature of the American writers, we see the great assistance of Indians to the more or less positive settlement of European descendants. American Indians have appeared in various guises in the works of many famous artists. The fact that we meet them in novels, poetry, plays, and stories proves how important the image of Indians is in the world and American literature. The American Indians first encountered by Christopher Columbus in 1492 were not always characterized by the highest human qualities. For many years, these peoples were regarded as bloodthirsty and barbaric people. By the first quarter of the 19th century, such negative views began to change. By this time, representatives of American literature began to include Indians as positive images in their prose, poetry and dramas. From the first half of the 19th century, the attitude towards them has been changing in a positive direction. The new approach to Native Americans was reflected in the literature and art of that period. For American writers and artists, Indians, their culture, the forests they live in became a new subject. Until this time, American literature relied on the traditions of European writers when choosing a topic.

The main goal of this article is to study American Indians as characters in fiction. As a

yaratilgan asarlarda oliyjanob kishilar bo'lib tasvirlangan. Shuningdek, bir asarning o'zida ham ikki toifa, ya'ni yaxshi va yomon hindu obrazlarini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot jarayonida o'z asarlarida hindular obrazini yaratgan shoir va yozuvchilar va ularning asarlari o'rganib chiqildi. Hindular obrazini yaratgan yozuvchilarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Bunga ko'ra Fenimore Kuper, Helen Hant Jekson, Uitmen Longfello, Chayld kabi yozuvchilar hindularni oliyjanob kishilar sifatida tasvirlagan bo'lsa, Braun, Simms, Byord kabi yozuvchilar asarlarida salbiy ruhdagi hindularni ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Amerika hindulari, jahon adabiyoti, Kuper, Longfello, Vitmen, hindu madaniyati, yaxshi va yomon hindular, Pokaxontas afsonasi, Ramona, Chingachguk.

result of studies, it was concluded that Indians are portrayed as a negative image in literary works created before the 19th century. On the contrary, in the works created after 1815, Indians are depicted as noble people. Still, we find two categories of good and bad Indian images in the same work. Undertaking the research, the author of the article studied poets and writers who created Indians' images in their works. Thus, the researcher divided those writers into two groups. So, such writers as Fennimore Cooper, Helen Hunt Jackson, William Longfellow Walt Whitman, and Child depicted Indians as noble people. On the contrary, Brawn, Simms, and Bird presented Indians in their works with a negative spirit and sometimes even very aggressive.

Key words: American Indians, world literature, Cooper, Longfellow, Whitman, Indian culture, good and bad Indians, legend of Pocahontas, Ramona, Chingachgook.

KIRISH

1812 yildagi Angliya-Amerika fuqarolik urushlari bu zaminda uzoq vaqtdan buyon istiqomat qilib kelayotgan hindu qabilalarining mavqei keskin ravishda oshishiga turtki bo'ldi. Adabiyotshunos Benjamin Spenser Amerika mahalliy tub aholisi bo'lgan hindularni o'rganar ekan, bu qabila vakillari 1815-yilga qadar Amerika millatchiligida va madaniy hayotida faqatgina salbiy qiyofada aks etganini alohida ta'kidlab o'tadi [Spenser, 1957; 51]. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab esa hindularga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Hindularga bo'lgan yangicha qarash shu davrning adabiyoti va san'atida asta-sekin o'z aksini topdi. Adiblar va rassomlar uchun hindular, ularning madaniyati, ular yashaydigan o'rmonlar, urf-odatlar yangi va qiziqarli mavzu bo'la boshladi. Qolaversa, Amerika adabiyotining mashhur namoyandalari ijobiy qahramonlik tipidagi hindular obrazini yaratishdi [Berkhofer, 1979; 86]. Vashington Irving, Jeyms Fenemor Kuper, H.V. Longfello, German Melvill va Nataniel Hovsorni kabilarning asarlarida hindular obrazi Amerika adabiyoti va san'atidagi ulug'vor shaxslar sifatida sharaflanib tasvirlanadi.

Asrlar mobaynida ko'proq og'zaki tarzda gullab yashnab kelgan mahalliy Amerika xalqlari adabiyotida 19-asrga kelib Yevropadan kirib kelgan roman, avtobiografiya kabi yangicha janrlar paydo bo'la boshladi. Bu davrgacha bo'lgan hindularning o'zlaridan chiqqan adiblar afsonalarga tayanib dunyoning paydo bo'lishi, insonning yaratilishi va uning zakovati, o'zga sayyoraliklar kabi mavzularda hikoya janrida asarlar yaratishgan. Davr adabiyotshunoslari hindularning asarlarini Yevropa an'alaridan farq qiladigan yagona manba deb hisobladilar. Zero, hindular obrazini tarannum etuvchi bu davr adabiyoti chin ma'noda mashhur bo'lib ketdi va bugungacha bunday asarlar millionlab o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladi. Shu bilan birga, Amerika klassik adabiyotining nodir durdonalari sifatida qadrlanib kelinadi.

Eronlik olimlar Pishkar va Naseri ta’biri bilan aytganda, J.F. Kuperning “So‘nggi Mohikanlar” (“The Last of the Mohicans”) (1826), Katarina Marianing “Sedjvikning umid Leslisi” (“Sedgwick’s Hope Leslie”) (1827) va G.V. Longfeloning “Haivata qo‘shig‘i” (“Song of Hiawatha”) (1855) asarlari hali uzoq davom ettirish mumkin bo‘lgan hindular haqidagi shoh asarlar nomlari sirasiga kirib, ular tobora yo‘q bo‘lib ketayotganligi holatlari tasvirlangan [Pishkar & Nasery, 2013; 55].

ASOSIY QISM

Amerika adabiyotida namoyon bo‘lgan hindular obrazi gaqida gap borar ekan, barcha adabiyot ixlosmandlari ko‘z o‘ngida Helen Hant Jeksonning Ramona obrazi, Longfeloning Haiwata obrazi, Vilyam Polkerning Sem Fazers va Bun Hoganbek obrazlari hamda J.F. Kuperning Chingachguk, Unkas va Magua obrazlari gavdalanadi [Stensland, 1977; 37].

19-asr Amerika adabiyoti namoyondalari asarlarida hindular o‘zgacha ruhda kashf etildi. Ayni shu davrda yaratilgan asarlarda hindularga xos bo‘lgan madaniyat, va ularga xos etnik jihatlar asarlar syujetlari doirasida juda keng yoritib berildi. Asr boshlaridanoq mahalliy Amerika xalqlari bo‘lgan hindularning adabiyot va san’atda ahamiyat kasb etishining ikkita muhim sababi bor. Ulardan biri Amerikada madaniy millatchilikning yuqori darajaga ko‘tarilishi [Honour, 1975], ikkinchisi Amerika adabiyotiga yangi janr – romanning paydo bo‘lishi bo‘ldi. Millat vakillari har sohada o‘zlarining mustamlakachilardan farq qilib turadigan o‘ziga xoslikka asos solishga intilishardi va bu adabiyot va san’at sohasida ham namoyon bo‘ldi [Jogasinghe, 2012; 60]. Adabiyot olamida badiiy mustaqillikka yetaklovchi mavzu to‘laligicha Amerika o‘rmonlari va hindulari bo‘ldi. Chunki aynan shu mavzu AQSH uchun yagonalik kasb etardi [Spenser, 1957].

Bu davr romanlarida inson his tuyg‘ulari, ruhiy kechinmalari, umuman ichki olami muhim ahamiyat kasb etgan. Hindularning tabiatga, o‘z yerlariga bo‘lgan cheksiz muhabbati yangi romantizm janri uchun mavzu bo‘lishiga yetarli edi va shu taqlid mahalliy hindular Amerika adabiyotida o‘z o‘rnini egalladi. Buning natijasi o‘laroq romantik asarlarda mahalliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi va milliy o‘tmishni sharaflashlarni ko‘rsatib berish uchun Amerika adabiyoti sahnasiga mahalliy hindular chiqdi.

Nyu Yorkdagi Kornel Universiteti professori Russell hindularni o‘rganar ekan, 19- asrning birinchi yarmida ijod etgan va o‘z asarida hindularning romantik tasvirini ijobiy so‘zlar bilan chizib bera olgan yozuvchilardan biri Vashington Irving bo‘lib, u romanchilikning yetuk namoyondasi sifatida Amerika hindularining himoyachisiga aylanganini, ularning badiiy tarjimoni bo‘lganini yozadi [Russell, 1931; 194]. Irving oq tanlilarning hindularga bo‘lgan adolatsiz munosabatini ochiq oydin qalamga oldi va mahalliy hindular boylikda, orzu-havasda hech bir millat vakillaridan kam emasligini ko‘p bora ta’kidladi [Seyersted, 1974; 20]. Irvingning “Pokanoket Filipi: hindu xotiralari” (“Phillip of Pokanoket: An Indian Memoir”) (1819) asari butunlay mahalliy hindularga bag‘ishlanganligi va bu turdagi asarlar yozuvchi ijodining ko‘p qismini tashkil etishi adib haqida yuqorida aytilgan fikrlarning qanchalik to‘g‘riligini

isbotlaydi.

Milliylik va millatga sadoqat ruhi Amerika yozuvchilarini adabiy manba sifatida murojaat etishga chorlagan bo'lsa, 19-asrning ikkinchi o'n yilligida Yevropadan kirib kelgan romanchilik hindular mavzusini obro'li va ulug'vor darajaga olib chiqish uchun badiiy til va mahorat uslubi bilan ta'minlashda asos bo'ldi [Somers, 2017; 1071].

Adabiyotda roman shunday janrki, unda asosan, tasavvuriy va ta'sirli mavzularga, qiyin vaziyatlarda g'olib chiqa olgan qahramon shaxslarga ahamiyat berish va, shuningdek, tabiatga, ulug'vorlikka, diniy udumlar va xalq og'zaki ijodiga qiziqish, o'tmishga va qadimiylikka munosabat bildirish muhim ahamiyat kasb etadi [Orians, 1967; 180].

Amerikalik yozuvchilar hindular obrazini shakllantirishda o'z davrining atoqli Angliyalik yozuvchilari Volter Skot (1771-1832) va Lord Bayron (1788-1824) an'anasiga tayanishadi. Kitobxonlar orasida romanlarning mashhur bo'lishi hindular mavzusini ham milliy adabiyot uchun muhim mavzu sifatida rivojlanib borishiga va bu mavzuga qiziqishlar ortishiga turki bo'ldi. 1820-yilda Nyu York adabiy jurnali (The New York Literary Journal) hindular haqida iliq fikrlarni yozdi:

“The history of the Indian will, hereafter, undoubtedly form the classic lore of American literature” (“Hindular tarixi bundan buyon, shubhasiz, Amerika adabiyotining asosini tashkil etadi”) [Orians, 1932; 418].

Shu tarzda butun Amerikada hindular hayotidagi sirli urf-odatlar, g'aroyib irim-sirimlar, jangovar urushlar, o'zini qurboni qilish va chidamlilikni aks ettirgan qahramonlaracha xatti-harakatlarga boy manba sifatida qarala boshladi. O'ziga xos imo-ishoralar va metaforalar bilan boyitilgan hindu tili esa bu davr olimlarining e'tiboridan chetda qolmadi. Bularning hammasi bir butun bo'lib Amerikada romanchilikni boyitishda va milliy o'zlikni da'vo qilishda boy manba bo'ldi.

Amerika adabiyotining nasr va nazmda yaratilgan asarlarida dastlab 1820-yillarda hindular sharafiga sazovor qahramon inson obrazi sifatida gavalana boshladi va ko'pincha yo'qolib borayotgan hindu qabilalari yoki ularning so'nggi vakili sifatida yoziladi. Birgina 1824-yildan 1834-yilgacha bo'lgan o'n yillik davrda 100 ta she'riy asarlarda va 40 ta romanda yo'q bo'lib ketayotgan hindular obrazi bosh qahramon yoki epizodik obrazlarda namoyon bo'ladi [Somers, 2017; 66]. Yozuvchi J.F. Kuperning “Kashshoflar” (“Pioneers”) (1823) asarida ham obro'li hindu qabilasi bo'lgan Delaverlarning so'nggi vakili Chingachkuk tasvirlagani so'zimizning bir isbotidir.

J.F. Kuper (1789-1881) hindular obrazi orqali badiiy mashhurlikning eng cho'qqisiga chiqqan adiblardan hisoblanadi. Hindular mavzusiga murojaat etgan romannavislarning hech biri J.F. Kuperchalik muvaffaqiyatga erishmagan. J.F. Kuper o'zining o'n bitta romanida hindularni asarning asosiy qahramonlari sifatida tasvirlaydi. Aslida hindularni ijobiy qahramonlar tipidagi obrazini yaratib J.F. Kuper boshqa adiblarga ham hindular mavzusiga murojaat etishga va ularni oliy inson darajasidagi ulug'lashlariga sababchi bo'ldi [Pearce, 1965]. J.F. Kuper o'zining yirik roman pentalogiya janridagi asari “Ko'n paypoq etaklari” (“The Leatherstocking Tales”) turkumiga kiruvchi “Kashshoflar” (“The Pioneers”) (1823), “Mohikanlarning

so'nggisi" ("The last of Mohicans") (1823), "Preir" ("The Praire") (1827), "Izquvar" ("The Pathfinder") (1840) va "Dersleyer" ("The Deerslayer") (1841) asarlarida mavzu sifatida mahalliy hindularga murojaat etdi va Amerika adabiyotida ilk mahalliy badiiy qahramonlarga asos soldi. Shuningdek, J.F. Kuper "Amerikaliklar tushunchasi" ("Notions of the Americans") (1850) ilmiy-tadqiqot kitobining hindular qismida hindu qabilalari haqida ko'p ma'lumotlar keltiradi. J.F. Kuper 19-asrda yuzlab hindu millati vakillari borligini aytadi [Cooper, 1850] va, xususan, Mohok qabilasini o'rganadi.

Amerikalik tarixchi, adabiyotshunos va yozuvchi Frensis Parkman (1825-1898) Garvard universiteti magistranti sifatida Amerika hindularini o'rgandi, ular yashaydigan hududlarga sayohat qildi, hindu qabilalari bo'lgan Pauni va Siular orasida bo'lib, ular haqidagi dastlabki bilim va taassurotlarini shakllantirdi va 1849-yilda "Oregon safari" ("Oregon trail") nomli asarini yozdi. Bu asarning vujudga kelishida yozuvchining hindu qabilalari orasiga qilgan safari asos bo'lib xizmat qildi. Yozuvchi unda hindularga uzoq yillar mobaynida adolatsiz munosabatda bo'lib kelingani, hindular haqidagi salbiy bo'rttirishlar aslida haqiqatga zid ekanligini aytib o'tadi [<http://xroads.virginia.edu/~Hyper/HNS/Indians/main.html>]. F.Parkman ta'biri bilan aytganda hindular g'ururi alanganing eng chaqnoq shulalari kabi baland va yorqin, ularning mag'rurligi har so'zida namoyon bo'ladi. Tabiat ularning borlig'i, orzu, havas, jasurlik, qasoskorlik, ba'zida esa sovuqqonlik ostida tuyg'ularini yashirish ularha xos xislat. Ozodlikka yovvoyilarcha muhabbat bilan intilish, bolalarini go'daklikdan kuchli temirday intizom bilan tarbiyalash hindulardan dovyurak jangchilar yetishib chiqishi uchun zamin bo'lgan, ularning yetuk zakovati esa o'z hududlarida to'kis hayot kechirishlariga xizmat qilgan. Yovvoyi olamda mavjud bo'lgan narsalar orasida hindularni tasvirlash, tarix va adabiyotning maqsadi edi [Parkman, 1898; 45].

L.M. Chayld (1802-1880) Amerika hindularining uzoq yillar mobaynida tan olinmagan haq-huquqlarini o'z asarlarida ijobiy bo'yoqlarda tasvirlash orqali himoya qilgan. Chayld qizil tanli hindular haqida "Hobomak: Qadim davr ertagi" ("Hobomak: A tale of early times") asarini yozgan. L.M. Chayld bu asarning kirish qismida "Hobomak" asari J.F. Kuperning "Kashshoflar" asarining uning qalamida yaratilgan versiyasi ekanligini ta'kidlaydi. Chunki bu ikkala asarda ham hindularning qahramonlarcha hayot tarzining vayron qilishga doir ishlar tasvirlangan [Pearce, 1967].

L.M. Chayldning qalbidagi insonparvarlik hissi uni yozuvchi sifatida hindularni o'zining Hobomak asarida oliy inson darajasida tasvirlashiga turtki bo'ldi. Hindularga xos bo'lgan sadoqat Chayld asarida ustuvorlik kasb etdi. Asarda hindu yigit Hobomak onasidan va sevganidan ajralgan oq tanli qizga muhabbat izhor etadi. Ular turmush qurishadi va o'g'illi bo'lishadi. Oq tanli ayol turmushi mobaynida hindu yigitga xos bo'lgan oliy insoniy xislatlarni kashf etadi. Bu esa 19-asr yangi janri bo'lgan Amerika romanchiligi orqali oq tanlilar va hindular o'rtasida iliqlik munosabat tiklanishiga qaratilgan sa'y-harakatlar edi.

Amerikaning mustaqil davlat sifatida shakllanishiga hissa qo'shgan davlat arboblardan biri T.Jeferson (1743-1826) ham hindularni jasorati va botirligi uchun maqtaydi. Vatan ozodligi yo'lida birlashishga chorlovchi hindu qabila boshliqlarining

nutqlari ularni mardonavorlikka chorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada Mingo qabilasi sardori Logan afsonaviy notiq sifatida e'tirof etilgan va u qadimgi Afina va Rimning buyuk notiqalaridan qolishmasligi ko'p bora Jeferson va boshqa hukumat a'zolari tomonidan tan olingan [Jefferson, 1984].

AQSHning Nyu-Jersi universiteti tadqiqotchisi M.K. Pyeruchchi hindularning Amerika adabiyotida namoyon bo'lishini yoritishga doir tadqiqotida davlat uchun yagonalik kasb etgan hindular mavzusi kattalar va bolalar badiiy adabiyotini har doim boyitib kelganligini, shuningdek, hindular haqidagi asarlar asosida yaratilgan filmlar ham Amerika adabiyoti va madaniyatini dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etganini ta'kidlaydi. Hindularni qalamga olish Amerikaning faqatgina adabiyotini boyitib qolmasdan bu xalqning madaniyati uchun ham muhim bo'lgan. Millatning shukronalik bayramini (Thanksgiving) nishonlash tarzi, ziravorlar bilan pishirilgan kurka go'shti hindular urf-odati sifatida ko'plab badiiy asarlarda namoyon bo'ladi [Pierucci, 2012].

19-asr Amerika adabiyoti bo'yicha mutaxassis Pensilvaniyadagi Vest Chester ilmiy-tadqiqotlar universiteti professori K.Sorisio ham mahalliy hindular Amerika adabiyoti romanchiligida eng ko'p qalamga olingan mavzulardan ekanligi va bu davr hindular va Amerika milliyligini anglash uchun eng oson davrliligi aytib o'tadi, chunki bu paytda uzoq yillardan buyon oyoqosti qilinib, qonxo'r va yirtqichlar sifatida qaralgan hindularning jamiyatdagi mavqei ancha oshgandi [Soriso, 2006; 12].

Italiyadagi Genoa universitetida Amerika adabiyoti bo'yicha professor E.Zolla hindularni alohida o'rgandi, ular haqida "Yozuvchi va Avliyo: Amerika hindularning shakllanishi" ("The writer and the Shaman: A morphology of the American Indian") (1969) nomli kitob yozdi. Zolla Shimoliy Amerika hindularini ular istiqomat qiladigan hududdagi manzara, xususan, keng ko'llar cheksiz o'rmonlar ulug'vor daryolar va tekisliklar bilan ayro tasavvur etib bo'lmasligini aytadi va shu sababli ham hindularning badiiy adabiyotda shakllangan obrazlarining asosiy xususiyatlari ular yashaydigan maskan va uning tabiati bilan hamohang tarzda namoyon bo'lishini alohida e'tirof etadi [Zolla, 1919; 97]. Professor Zollaning hindular haqidagi bu asari hindular haqida yozilgan eng katta ishlardan bo'lib, u orqali turli davrlarda turli adiblarning har xil janrdagi asarlarida hindular obrazining namoyon bo'lishini o'rganishimiz mumkin. Italiyalik Professor Zolla hindular badiiy adabiyoti uchun naqadar boy manba bo'lganini ko'rsatib berdi, chunki u hindularga faqat adabiyot orqali nazar tashladi [Davenport, 1974; 101].

Amerika adabiyotida hindularni o'rgangan yetuk taqqiqotchilardan yana biri Amerikalik professor Albert Keyserdir. U o'zining "Amerika adabiyotida hindular" ("The Indians in American literature") (1933) kitobida Amerika adabiyotining ko'plab asarlarida tasvirlangan hindular obrazi hindu qabilalari, ular yashaydigan hudud geografiyasi tarixi haqida ham katta manba bo'lib xizmat qilishini yozadi. Garchi hindular nisbatan qisqa davrda muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, sehrli diyor adabiyotida shu paytgacha yaratilgan asarlar ichida eng asl nazmiy va eng muhim mashhur nasriy asarlar xazinasini tashkil etadi [Keizer, 1933;]. Keyser adabiyotning hindular bilan bog'liq tarmog'ini o'rganar ekan, ko'p hollarda hindularning ona

tuproqlariga egalik qilish uchun qilgan kurashlari katta rol o'ynaganini aytadi. Bu harakatlarda hindular qahramonlar bo'lib gavdalanadi. Ularni madh etuvchi ko'plab she'rlar va dramalarda qahramonlar tarixiy shaxslar asosida yaratilgan bo'lsa, epik asarlarda tasavvuriy hindu obrazlari ko'proq uchraydi.

Aslida hindular obrazini yaratish Amerikaga mustamlakachilarning kirib kelishi bilan boshlangan. Bu esa 15-asrlarga borib taqaladi. Bu davr tadqiqotchilarining jurnallari va kundaliklarini boyitish uchun yangi qit'a va unda istiqomat qiladigan hindular boy manba bo'lib xizmat qilgan [Knopf, 2008; 9]. Xitoylik tadqiqotchilar Liu va Xang ham hindu obrazlarini Amerika uchun o'ziga xoslik kasb etishini va hindular obrazi yaratilgan badiiy asarlar mamlakat va jahon adabiyotining roman, hikoya kabi janrlarini boyitishi bilan bir qatorda, ular asosida yaratilgan filmlar va multfilmlar ham butunjahon ahli tomonidan iliq qabul qilinganini e'tirof etadi [Liu & Zhang, 2011; 105].

Bu mavzusidagi hikoyalar, afsonalar, she'rlar va romanlar Yevropalik yozuvchilarni ham hindular mavzusiga murojaat etishga undagan. Germaniyalik yozuvchi K.May ham 19-asr oxiriga kelib o'z asarlarida hindular obrazini yaratdi. Lekin Mayning Qari Shaterhend, Winetou kabi hindu qahramonlari nemis madaniyati bilan uyg'unlashgandi [Ščigulinská, 2017; 96].

Tartu universiteti tadqiqotchisi H.Tabur Jo'gi hindular haqida olib borgan magistrlik dissertatsiyasida adabiyotda yaratilgan hindu obrazlarini besh turga bo'ladi. Ulardan birinchisi hissiz hindular (the flat Indian) bo'lib, bu turdagi hindular ibtidoiy odamlarni eslatadi. Ikkinchi guruhi esa badiiy asarlarda ko'p bora gavdalangan jangchi hindular (the warrior) bo'lib, ular asarlarda yuqori darajadagi g'urur va matonat egalari, shuningdek, zakovatli va charchoq bilmas kishilar sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy asarlardagi uchinchi toifadagi hindu obrazi vakillari esa do'st va sherik (the mentor) tipidagi hindulardir. Bu tipdagi hindular obrazini romanlarda hikoyalarda va she'riy asarlarda uchratishimiz mumkin. J.F. Kuperning "Ko'n paypoq" turkumidagi asarlarida hindu Chingachkuk Natti Bampuning sadoqatli do'sti va maslakdoshi sifatida tasvirlanadi. Ko'plab yozuvchilarning asarlarida hindular ikki xil qarama qarshi yani ijobiy va salbiy obrazlarda gavdalanadi. Tabur-Jo'gi salbiy qiyofada namoyon bo'ladigan hindu obrazlarining bir guruhini ichkilikbozlikka berilgan (the political bum) hindu obrazlari deb ataydi. Bunday tipdagi hindu obrazlari ko'proq 19-asrdan avval yozilgan badiiy asarlarda uchraydi. Amerikalik tadqiqotchi L.N. Kotton hindularga bag'ishlangan tadqiqotida adabiyotda oliyjanob hindular mavzusi bilan bir qatorda qonga tashna (bloodthirsty) hindular obrazi ham mashhur bo'lganini aytadi. Ko'plab badiiy asarlarda salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan hindularning ijobiy bo'yoqlar bilan gavdalangan hindularga qarshi harakatlari tasvirlanadi. Bunday harakterdagi yaxshi-yomon hindular J.F. Kuper, O.Vister (1860-1938), Z.Grey (1872-1939) kabi yozuvchilarning romanlarida uchraydi [Cotton, 2008; 10].

Shuningdek, hindular 1990-yillardan keyin yaratilgan badiiy asarda o'qimishli, ishbilarmon, tadbirkor va huquqshunoslar sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu kabi hindular Tabur-Jo'gining beshinchi guruh (White Collar Redskin) hindu obrazlariga kiritiladi [Tabur-Jo'gi, 2004; 3]. Tadqiqotch Moniz izlanishlari natijasida ijobiy hindu

obrazlarining xususiyatlaridan yana biri donolik ekanligini aytadi. Hindular ko‘pincha zukko kishilar sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, ba’zi hindu qabilalari giyohlardan tabobat vositalari tayyorlab odamlarni davolaydigan tabiblar bo‘lganliklarini badiiy asarlar orqali bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham hindularga nisbat “shaman” (avliyo) so‘zi ishlatilgan o‘rinlar ham bor [Moniz, 2016; 42]. J.F. Kuperning “Kashshoflar” (“Pioneers”) asarida hindu Chingachkukni tabib ajdodlari sababli tajribali doktor sifatida hamma hurmat qilishi va uning o‘qdan yaralangan ovchini osonlik bilan davolaganligi voqeasi so‘zimizning yaqqol dalilidir.

Amerikalik tadqiqotchilar N.B. Blek va A.S. Vaydman hindular asosida yaratilgan badiiy obrazlarni o‘rganar ekan, ular 1800-yillargacha bo‘lgan davrda ko‘proq ilmiy, falsafiy va diniy asarlarda yoritilganini va 19-asrdan boshlab badiiy adabiyotning nasr, nazm va sahna asarlarida badiiy obraz sifatida keng ko‘lamda rivojlanishini takidlaydi. 1800-yilgacha yozilgan hindular mavzusidagi she’riy va sahna asarlari juda kam sonli bo‘lib, bu mavzu 19-20-asrlarda rivojlanish cho‘qqisiga chiqdi. Mazkur davrda yaratilgan badiiy asarlarda hindular tutqunlikdagi shaxs sifatida tasvirlangan. Bundan maqsad esa hindularga nisbatan nafrat uyg‘otish edi [Black & Weidman, 1976; 11].

Ko‘pchilik Amerikaliklar hindularni xo‘rlangan baxtsiz qismatga ega irq vakillari sifatida ko‘rishadi. 19-asrga kelib ko‘plab yozuvchilar va rassomlar hindular mavzusiga murojaat etishdi. Hindularni qalamga olgan yozuvchilarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh vakillari hindularni shavqatsiz kishilar sifatida tasvirlaydi va hindularni oq tanlilardan quyi tabaqaga qo‘yadi. Bunday yozuvchilarga Braun, Simms, Parkman, Byord va Mark Tvenlarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh yozuvchilari esa hindularni ulug‘lab asarlar yozishgan va hindular istiqomat qiladigan joylar tabiatini eng chiroyli peyzajlar bilan tasvirlaganlar. Bunday yozuvchilarga Barker, Irving, Kuper, Stoun, Chayld, Toro, Longfello va Jeksonlarni misol qilib keltirish mumkin.

Amerikalik adabiyotshunos R.H. Pirs ta’kidlashicha 19-asrda hindularni sharflash badiiy g‘oyasi sahna asarlar, she’rlar va hikoyalarda o‘z aksini topdi va bu badiiy g‘oya o‘ziga xos madaniyat yaratishda kuchlilik va boqiylik kasb etib xalqning hurmatiga sazovor bo‘ldi. Shunga qaramasdan bu davr romanlarida hindular she’rlar hikoyalar va sahna asarlaridagi kabi faqat ijobiy obraz bo‘lib qolmasdan qarama qarshi ikki xil: ijobiy va salbiy obrazlarda namoyon bo‘ldi. 19-asr yozuvchilari tomonidan yozilgan romanlarda ikki toifadagi hindu obrazlarini ko‘rish mumkin. Hindular mavzusiga murojaat etgan ilk yozuvchilardan bo‘lgan J.F. Kuper asarlarida namoyon bo‘lgan yaxshi va yomon hindu obrazlari bunday an’anani romanlarda davom ettirishga boshqa roman yozuvchilariga ham turtki bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi ham mumkin [Pearce, 1977; 196].

Hindular madaniyati shimoliy Amerikadagi ilk mashhur madaniyat bo‘lib u Amerika madaniy merosining eng muhim qismini tashkil etadi. Tadqiqotchi A.L. Stensland e’tirofiga ko‘ra, tarixan birinchi hindu obrazlari oliyjanob qizil tanli yoki tabiat bolasi sifatida tasvirlangan J.F. Kuperning Chingachkuk obrazi va Longfellingning Haivata obrazlari erkin va mustaqil hindu obrazi sifatida namoyon

bo'lsa, H.H. Jeksonning Alessandro va Folknerning Sem Fazers obrazlari oliyjanob qizil tanli hindu obrazlarini o'zida mujassamlashtirgan [Stensland, 1979].

Shuningdek hindu ayollari ham go'zallik, sadoqat va oliyjanoblik kabi sifatlar bilan boyitilgan obrazlarda badiiy asarlarda aks etadi. Ko'plab asarlarda hindularni sadoqatli do'st va sherik sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Stensland hindular o'zaro yoki ko'p hollarda oq tanlilar bilan do'stlik rishtalarini bog'laganlarini aytadi. Amerikalik adabiy tanqidchi L.Fidler g'arb romanlarida muhim o'rin tutgan hindular haqidagi to'rtta asosiy afsonaga etibor qaratadi. Bular o'rmondagi muhabbat yoki Pokahontas afsonasi; bolg'ali oq tanli ayol yoki hindu asir hikoyasi; Natti Bampu va Chingachkuk kabi chin do'stlar afsonasi va uydan, sivilizatsiyadan qochgan erkak afsonalaridir [Fiedler, 1969].

Hindularning romantik tasviri faqatgina Amerikalik oq tanli yozuvchilar tomonidan emas Yevropalik yozuvchilar tomonidan ham yaratilgan. Bu haqida ko'plab tadqiqotlar olib borgan olim Amerika ilmiy izlanishlar uyushmasi (American Studies Association) prezidenti R.F. Berxafer alohida takidlab o'tadi. Angliyada Tomas Kempbell (1777-1844) "Gertrude of Wyoming" (1809) she'riy asarida va Fransiyada Fransua Rene de Shatobrian (1768-1848) esa "Atala" (1801) epik asarda hindularning ijobiy romantik tasvirini yaratgan. Amerika yozuvchilari orasida esa J.F. Kuper jahon adabiyotida muhim badiiy tur sifatida hindularga asos soldi [Berkhofer, 1978].

Amerika adabiyotida she'riyat drama kabi janrlar 19-asrgacha hali to'liq rivojlanmagan edi. Shuning uchun ham 19-asrgacha bo'lgan davrda hindular ko'proq ilmiy asarlarda tasvirlangan T.Xarriot (1560-1621) 16-asrda Virjiniya hindularini ilmiy jihatdan detallari bilan tasvirlagani so'zimizning dalilidir. Harriot etnograf sifatida hindularning tashqi ko'rinishi, urf-odatları, kamon va nayzalardan iborat qurol aslahalari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Aslida 19-asr boshlanishi hindular va oq tanlilar o'rtasidagi yer uchun kurash jarayoni bilan xarakterlanadi. Oq tanlilar egallab turgan hududlarini yanada kengaytirish va u yerlarni rivojlantirish uchun hindularni uzoq davrlardan buyon istiqomat qilib kelayotgan yerlardan yo'qotish harakatiga tushishgandi. Buning natijasida esa ko'plab qabila yerlari vayron qilingan. Hindular uzoq davrlardan buyon asrab-avaylab kelayotgan tabiat esa oq tanlilar o'z maqsadlari yo'lida foydalanadigan o'ziga moslab oladigan iste'mol manbaiga aylangandi. Garchi yozuvchilar va rassomlar hindular mavzusiga murojaat etgan bo'lsa-da, Amerika tadqiqodidagi g'urur va hindularni mensimaslik sababli ularning hayotini o'rganishga qo'l urilmagan. Bu paytda Yevropada ko'p narsalar o'rganilgan, o'rganilmagan jihatlar deyarli qolmagandi. San'at tarixshunosi J.T. Fleksner Amerika san'at olamida qit'ada mavjud bo'lgan g'aroyib xalqlar hindularga ahamiyat qaratilmagani hayratlanarli ekanligini aytadi [Flexner, 1970]. Shu tarzda 19-asrda olimlar tomonidan hindularni o'rganish uchun sa'y-harakatlar boshlandi. Hindular istiqomat qiladigan yerlarning qanchalik go'zaligini, ularning xarakteridagi ezgulikni ko'rib bu xalqlar haqida mavjud bo'lib kelgan salbiy fikrlar tadqiqotchilar uchun so'roqli bo'lib qoldi. Savdogarlar, ilmiy izlanuvchilar, doktorlar va boshqa toifadagi ko'plab odamlar hindu qabilalariga sayohat uyushtirishdi. Ular orasida Maravian diniy ta'limotchisi John Heckvelder

ham bo'lgan va u hindular haqida "Pensilvaniya va yaqin shtatlarda yashaydigan hindu millati tarixi, fe'l atvori va odatlari" ("History Manners and Customs of the Indian Nations who once inhabited Pennsylvania and the Neighboring states") (1818) kitobini yozgan. Bu kitob hindu qabilalari bo'lgan Delaverlar haqida bo'lib, yozuvchi J.F. Kuperga hindular haqida romanlar yozishga manba bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqotchi G.R. Skulkraftning "Shimoliy Amerika hindularning aqliy xususiyatlari jamlangan tadqiqot" ("Algie Researches, comprising inquiries respecting the mental characteristics of the North American Indians") ilmiy ishi esa H.V. Longfelloning hindular haqidagi she'rlariga manba bo'ldi. Shuningdek L.G. Morganning hindu qabilalari haqidagi "Irokeslar ittifoqi" ("League of Iroquois") tadqiqoti yangi etnografiya fan tarmog'ida birinchi katta ishlardan bo'ldi.

Yevropalik adiblardan fransuz adibi J.J. Russoning (1712-1778) tabiatni sevuvchi, tabiat bag'rida yashayotgan hamma insonlar yaxshi ekanligi haqidagi qarashlari oliyjanob hindular haqidagi uzoq afsonaga bo'lgan qiziqishni yangiladi. Yana bir fransuz yozuvchisi F.R. de Shatobrian (1768-1848) esa "Atala" (1801) va "Rene" (1802) romanlari bilan hindular Amerika tuprog'ining farzandlari ekanligini va bu joy ularning yurtiligini hamma anglab yetishiga hissa qo'shdi. Russo va Shatobrian ikkalasi ham mehribon tabiat bilan hamohang tarzda yashayotgan hindu qabilalaridan faqat yaxshilik kutish mumkinligi ta'kidladi. Bu g'oyalardan ta'sirlangan eng atoqli Amerikalik yozuvchi J.F. Kuper bo'lib, u ham o'z romanlarida oliyjanob hindular mavzusiga qo'l urishiga turtki bo'ldi [Black & Weidman, 1976].

Dastlab faqat ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar uchun hindular yashaydigan hududlar borib o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik badiiy adabiy maqsadlarda ham hindular maskanlariga borib ularni o'rganish odat tusiga kirdi. Ch.F. Hoffman, V.Irving, F.Parkman, M.Fuller va boshqa yozuvchilar o'z taassurotlarini yozish uchun hindular yashaydigan joylarga tashrif buyurishdi. Chunki 19-asrdagi adabiyot ixlosmandlari to'qima ma'lumotlardan ko'ra tadqiqotga asoslanib yaratilgan asarlarni katta qiziqish bilan o'qir edilar. Masalan, yozuvchi German Melvill (1819-1891) o'zining "Mobby Dick" asarida o'zi guvohi bo'lgan kit ovlayotgan kapitan hikoyasini keltiradi. Shu kabi boshqa yozuvchilar ham yer sharining hali inson qadami yetmagan joylaridagi kenglik boyluk va go'zalligining haqiqatga asoslangan tasvirini yozishga harakat qilishgan. Shu tarzda hindular obrazi Amerika yozuvchilari tomonidan ikki xil usulda: tasavvuriy va faktga asoslanib yaratilgan. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, 19-asrda yaratilgan hindular obrazi ko'proq vidolashuv sahnalarida namoyon bo'ldi. O'rmonda yo'qolgan hindu Hobomak, hindu yigit Unkas qabri oldida pichirlab turgan Tamenund holati, botayotgan quyosh bilan jo'nab ketayotgan hindu Haivata, Melvillening baliq ovlovchi hindu qahramoni Tashtego kabilar 19-asrda yo'q bo'lib ketayotgan va ayriliq sahnasida yoritilgan hindular obraziga misol bo'ladi.

XULOSA

Xulosa shuki, qahramonlik harakatlari bilan tasvirlangan hindu obrazlari King Filip, Konanchet, Pontiak, Logan, Tekumseh, Sting Bul va boshqalardan ta'sirlanmaslikning iloji yo'q. Ko'pincha hindu tarixiy shaxslar gavdalangan she'rlar

va dramalar, shuningdek, to‘qima obrazlar bilan boyitilgan umrboqiy romanlar doimo Amerika va jahon adabiyoti xazinasining durdona asarlari bo‘lib qoldi. Uzoq vaqtlardan buyon tahqirlanib, qoralanib, past nazar bilan qaralib kelinayotgan hindularning 1812-yildagi fuqarolik urushlaridagi jonbozligi sababli Amerikada hurmat topdi va sharaflandi. Oliyjanob hindular vatan adabiyoti uchun yangi mavzu bo‘ldi. Mardlik va jasorat, do‘stlik va sadoqat ularni madh etuvchi xususiyatlar ekanligi badiiy asarlarda ko‘p bora yozildi. Hindular uyushqoqlikda, bir maqsad yo‘lida birlashishlikda qudratli ekanliklari va ularning qabila sardorlari esa notiqlikda qadimgi Yunon va Rim oratorlaridan qolishmaydigan afsonaviy notiqlar [Shalev, 2009] ekanliklari hukumat a‘zolari tomonida bot-bot tilga olindi va namuna qilib ko‘rsatildi.

Bugungi kunda hindular nomi tilga olinganda hammaning ko‘z o‘ngiga Amerika va uning tub aholisi bo‘lgan boshida patli bosh kiyim kiygan qabila vakillari gavdalanadi. Amerikalik yozuvchi va jurnalist V. Tyudor (1779-1830) ta’kidlaganidek, hindular jasoratda, mardonavarlikda Gomerning “Illiada”sida va Vergiliy Rimning “Eneida” dostonlarida ta’riflangan kishilardan kam joyi yo‘q [Tyudor, 1815; 18]. Hindular haqida ularning xulq-atvori-yu, ularga xos boshqa xususiyatlar, yashash tarzi, ular istiqomat qiladigan joy va tabiati haqida bizga bilim va tasavvur bergan narsa esa shak-shubhasiz adabiyotdir. Dunyo ahli hindularni badiiy asarlar orqali angladi. Chingachuk, Unkas, Hobomak, King Filip, Konanchet, Pontiak, Logan, Tekumseh va Sting Bul kabi hindu obrazlari asarlarda ko‘rsatilgan qahramonliklari bilan Tyudor ta’kidlagan jasur hindularga misol bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berkhofer, R.F. (1979). *The white man's Indian: Images of the American Indian from Columbus to the present*. New York: Vintage books.
2. Black, N.B., & Weidman, A.S. (1976). *White on Red: Images of the American Indian*. New York: Kennikat Press.
3. Davenport, G. (1974). The Indian and his image. Review of the writer and the Shaman: A morphology of the American Indian by Elimire Zolla. *The Hudson Review*, 27(1), 101-105.
4. Fiedler, L.A. (1969). *The return of the vanishing American*. London: Jonathan Cape.
5. Honour, H. (1975). *The new golden land: European images of America from the discoveries to the present times*. New York: Pantheon.
6. James, T.F. (1970). *Nineteenth century American Painting*. New York: G.P. Putnam’s Sons.
7. Jefferson, T. (1984). A summary view of the rights of British America. In *Encyclopedia Virginia*. <https://encyclopediavirginia.org/entries/a-summary-view-of-the-rights-of-british-america-by-thomas-jefferson-1774>.
8. Jogasinghe, M.K. (2012). The significance of native Indian presence in America Literature. *Asian Review of Social Sciences*, 11(1), 59-62
9. Keizer, A. (1933). *The Indian or American Literature*. New York: Oxford University Press.
10. Knopf, K. (2008). *Decolonizing the lens of power: Indigenous films in North America*. New York: Rodopi
11. Cooper, J.F. (1850). *Notions of the Americans*. New York: Stringer & Townsend.
12. Cotton, L.N. (2008). American Indian stereotypes in early Western Literature and the lasting influence on American culture. *MA thes*. Baylor University.
13. Liu, K., & Zhang, H. (2011). Self- and counter-representations of native Americans: Stereotypical self-images of and new images by native Americans in popular media. *Intercultural Communication Studies XX*, 2, 105-118.
14. Moniz, A. (2016). Being native American in a stereotypical and appropriated North

- America. *Hohonu Academic Journal*, 14, 41-46.
15. Orians, G.H. (1932). The Romance Ferment after Waverley. *American Literature*, 3(4), 408-431. <https://doi.org/10.2307/2920350>.
 16. Orians, G.H. (1967). The rise of Romanticism, 1808-1855. In H.H. Clark (Ed.), *Transitions in American Literary History* (pp. 163-264). New York: Octagon Books, Inc.
 17. Parkman, F. (1898). *The conspiracy of Pontiac and the Indian war after the conquest of Canada* (Vol.1) (pp. 43-49). Boston.
 18. Pearce, R.H. (1965). *The savages of America: A study of the Indian and the idea of Civilization*. Baltimore: The John Hopkins Press.
 19. Pearce, R.H. (1977). *Savagism and civilization: A study of the Indian and the American mind*. Baltimore: John Hopkins Press.
 20. Pierucci, Ch.M. (2012). *Indian possession and playing: An American tradition from Tom Sawyer to Today*. New Jersey.
 21. Pishkar, K., & Nasery, N. (2013). Impact of American Indian oral literature on American postmodern literature. *Journal of Science and Today's World*, 2(12), 1453-1459.
 22. Russell, J.P. (1931). Irving: Recorder of Indian life. *The Journal of American History*, 25, 185-195.
 23. Ščigulinská, J. (2017). Stereotypical images of Native Americans in literature and film. In *English Matters VIII* (pp. 93-103). Presov: Presov University in Presov.
 24. Seyersted, P. (1974). The Indian in Knickerbocker's New Amsterdam. *The Indian Historian*, 7, 14-28.
 25. Somers, J.M. (2017). The "Noble Savage" in American music and literature, 1790-1855. *Thesis, Dissertations and Capstones*, 1071.
 26. Sorisio, C. (2006). Introduction: native Americans in American literature. *The Journal of the American Renaissance*, 52, 1-15.
 27. Spenser, B.T. (1957). *The quest for nationality: An American literary campaign*. Syracuse: Syracuse University Press.
 28. Stensland, A.L. (1977). The Indian presence in American literature. *The English Journal*, 66(3), 37.
 29. Stensland, A.L. (1979). *Literature by and about the American Indian National Council of teachers of English*. United States of America.
 30. Tabur-Jo'gi, M. (2004). Stereotypical self-images of Native Americans in the novel "Reservation Blues", and short story collections "The Lone Ranger and Tonto Fistfight in Heaven" and "The Toughest Indian in the World by Sherman Alexie". *MA thes*. Tartu.
 31. Tudor, W. (1815). An address delivered to the Phi Beta Kappa Society at their anniversary meeting at Cambridge, *North American Review*, 4, 13-32.
 32. Zolla, E. (1919). *The writer and the Shaman: A morphology of the American Indian*. New York.
 33. Shalev, E. (2009). *Rome reborn on western shores: Historical imagination and Creation of the American Republic*. Charlottesville: University of Virginia Press.
 34. <http://xroads.virginia.edu/~Hyper/HNS/Indians/main.html>.

REFERENCES

1. Berkhofer, R.F. (1979). *The white man's Indian: Images of the American Indian from Columbus to the present*. New York: Vintage books.
2. Black, N.B., & Weidman, A.S. (1976). *White on Red: Images of the American Indian*. New York: Kennikat Press.
3. Cooper, J.F. (1850). *Notions of the Americans*. New York: Stringer & Townsend.
4. Cotton, L.N. (2008). American Indian stereotypes in early Western Literature and the lasting influence on American culture. *MA thes*. Baylor University.
5. Davenport, G. (1974). The Indian and his image. Review of the writer and the Shaman: A morphology of the American Indian by Elimire Zolla. *The Hudson Review*, 27(1), 101-105.

6. Fiedler, L.A. (1969). *The return of the vanishing American*. London: Jonathan Cape.
7. Honour, H. (1975). *The new golden land: European images of America from the discoveries to the present times*. New York: Pantheon.
8. James, T.F. (1970). *Nineteenth century American Painting*. New York: G.P. Putnam's Sons.
9. Jefferson, T. (1984). A summary view of the rights of British America. In *Encyclopedia Virginia*. <https://encyclopediavirginia.org/entries/a-summary-view-of-the-rights-of-british-america-by-thomas-jefferson-1774>.
10. Jogasinghe, M.K. (2012). The significance of native Indian presence in America Literature. *Asian Review of Social Sciences*, 11(1), 59-62
11. Keizer, A. (1933). *The Indian or American Literature*. New York: Oxford University Press.
12. Knopf, K. (2008). *Decolonizing the lens of power: Indigenous films in North America*. New York: Rodopi
13. Liu, K., & Zhang, H. (2011). Self- and counter-representations of native Americans: Stereotypical self-images of and new images by native Americans in popular media. *Intercultural Communication Studies XX*, 2, 105-118.
14. Moniz, A. (2016). Being native American in a stereotypical and appropriated North America. *Hohonu Academic Journal*, 14, 41-46.
15. Orians, G.H. (1932). The Romance Ferment after Waverley. *American Literature*, 3(4), 408-431. <https://doi.org/10.2307/2920350>.
16. Orians, G.H. (1967). The rise of Romanticism, 1808-1855. In H.H. Clark (Ed.), *Transitions in American Literary History* (pp. 163-264). New York: Octagon Books, Inc.
17. Parkman, F. (1898). *The conspiracy of Pontiac and the Indian war after the conquest of Canada* (Vol.1) (pp. 43-49). Boston.
18. Pearce, R.H. (1965). *The savages of America: A study of the Indian and the idea of Civilization*. Baltimore: The John Hopkins Press.
19. Pearce, R.H. (1977). *Savagism and civilization: A study of the Indian and the American mind*. Baltimore: John Hopkins Press.
20. Pierucci, Ch.M. (2012). *Indian possession and playing: An American tradition from Tom Sawyer to Today*. New Jersey.
21. Pishkar, K., & Nasery, N. (2013). Impact of American Indian oral literature on American postmodern literature. *Journal of Science and Today's World*, 2(12), 1453-1459.
22. Russell, J.P. (1931). Irving: Recorder of Indian life. *The Journal of American History*, 25, 185-195.
23. Shchigulinska, J. (2017). Stereotypical images of Native Americans in literature and film. In *English Matters VIII* (pp. 93-103). Presov: Presov University in Presov.
24. Seyersted, P. (1974). The Indian in Knickerbocker's New Amsterdam. *The Indian Historian*, 7, 14-28.
25. Shalev, E. (2009). *Rome reborn on western shores: Historical imagination and Creation of the American Republic*. Charlottesville: University of Virginia Press.
26. Somers, J.M. (2017). The "Noble Savage" in American music and literature, 1790-1855. *Thesis, Dissertations and Capstones*, 1071.
27. Sorisio, C. (2006). Introduction: native Americans in American literature. *The Journal of the American Renaissance*, 52, 1-15.
28. Spenser, B.T. (1957). *The quest for nationality: An American literary campaign*. Syracuse: Syracuse University Press.
29. Stensland, A.L. (1977). The Indian presence in American literature. *The English Journal*, 66(3), 37.
30. Stensland, A.L. (1979). *Literature by and about the American Indian National Council of teachers of English*. United States of America.
31. Tabur-Jo'gi, M. (2004). Stereotypical self-images of Native Americans in the novel "Reservation Blues", and short story collections "The Lone Ranger and Tonto Fistfight in Heaven" and "The Toughest Indian in the World by Sherman Alexie". *MA thes*. Tartu.

32. Tudor, W. (1815). An address delivered to the Phi Beta Kappa Society at their anniversary meeting at Cambridge, *North American Review*, 4, 13-32.
33. Zolla, E. (1919). *The writer and the Shaman: A morphology of the American Indian*. New York.
34. <http://xroads.virginia.edu/~Hyper/HNS/Indians/main.html>.